# III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 5 273,8 mlrd. so‘mni yoki 2025- yilning mos davriga nisbatan 104,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 5 087,1 mlrd. so‘mni (105,0 %), o‘rmon xo‘jaligi 172,7 mlrd. so‘mni (100,2 %), baliqchilik xo‘jaligi 14,0 mlrd. so‘mni (95,4 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 8,3 % ni tashkil qildi.



**5 273,8 mlrd. so‘m**

**5 087,1** **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

**172,7** **O‘rmon xo‘jaligi**

**14,0** **Baliqchilik xo‘jaligi**

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, *mlrd. so‘m*



2026- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Kitob (497,3 mlrd. soʻm), Chiroqchi ( 472,4 mlrd. soʻm), Koson (452,4 mlrd. soʻm), G'uzor (413,8 mlrd. soʻm), Dehqonobod (390,7 mlrd. soʻm) , Shahrisabz (389,6 mlrd. soʻm), Qarshi (348,3 mlrd. soʻm), Nishon (344,8 mlrd. soʻm), Kasbi (343,6 mlrd. soʻm),Yakkaog' (337,7 mlrd. soʻm), va Qamashi (313,1 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qarshi (98,0 mlrd. soʻm) va Shahrisabz shaharlarni (24,8 mlrd. soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

## Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining xoʻjaliklar toifalari boʻyicha taqsimlanishi

*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*

**Hosil yigʻimi**. 2026- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 4,1 ming tonna sabzavot (25,8 foizga koʻp) yetishtirildi.

## 2026- yilning yanvar-martida xoʻjalik toifalari boʻyicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

| | **Fermer xoʻjaliklari** | | **Dehqon va tomorqa xoʻjaliklari** | | **Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ***tonna*** | ***oʻsish surʼati, foizda*** | ***tonna*** | ***oʻsish surʼati, foizda*** | ***tonna*** | ***oʻsish surʼati, foizda*** |
| Kartoshka | - | - | - | - | - | - |
| Sabzavotlar | 99 | 3,7 m. | 3238 | 111,3 | 812 | 2,2 m. |
| Poliz | - | - | - | - | - | - |
| Meva | - | - | - | - | - | - |
| Uzum | - | - | - | - | - | - |



## Dehqonchilik

2026- yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 262,0 mlrd. so‘mni yoki 2026- yilning mos davriga nisbatan 125,9 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 5,0 % ni tashkil qildi.

## Sabzavotlar

**Hajmi,** *ming tonna*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da***




2026- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 4,1 ming tonna sabzavotlar (2026- yilning yanvar-martiga nisbatan 25,9 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 78,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Fermer xo‘jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari** **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

**Qashqadaryo viloyati bo‘yicha**
**sabzavotlar**
**yetishtirish hajmi,** *tonna*






## Chorvachilik

2026- yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 4 715,9 mlrd. so‘mni yoki 2025- yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 89,4 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2026 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 49,1 ming tonna go‘sht (2025- yilning yanvar-martiga nisbatan 2,8 % ga ko‘p), 164,0 ming tonna sut (5,1 % ga ko‘p), 100,3 mln. dona tuxum (0,1 % ga ko‘p) va 457,5 tonna baliq 3,7 % ga ko‘p) ovlandi.




## 2026- yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari

| | *miqdori* | *o'sish sur'ati, %* |
|---|---|---|
| **Go'sht (tirik vaznda), *ming tn.*** | **49,1** | **102,8** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 3,6 | 143,5 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 44,3 | 100,1 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1,2 | 120,4 |
| **Sut, *ming tn.*** | **164,0** | **105,1** |
| *shu jumladan*: | | |
| Fermer xo'jaliklari | 13,9 | 138,4 |

*davomi*

| | *miqdori* | *o‘sish sur’ati, %* |
|---|---|---|
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 146,3 | 101,8 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 3,8 | 167,3 |
| **Tuxum, *mln. dona*** | **100,3** | **100,1** |
| *shu jumladan*: | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 8,2 | 114,6 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 61,2 | 101,0 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 30,9 | 95,2 |

## Go‘sht (tirik vaznda)

**Hajmi,** *ming tonna*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da***




2026- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 49,1 ming tonna go‘sht (2025- yilning yanvar-martiga nisbatan 2,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 90,3 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.

**Fermer xo‘jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari** **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda)




## Sut

**Hajmi,** *ming tonna.*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi,*** *% da*




2026- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 164,0 ming tonna sut (2026- yilning yanvar-martiga nisbatan 5,1 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 89,2 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Fermer xo‘jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari** **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, *tonna*




## Tuxum

**Hajmi,** *mln.dona*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da***




2026- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 100,3 mln.dona tuxum (2025- yilning yanvar-martiga nisbatan 0,1 % ga ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 61,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Fermer xo‘jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari** **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



**Qashqadaryo viloyati bo'yicha olingan tuxum yetishtirish hajmi,** *ming dona*




**Baliq**

**Hajmi,** *tonna*




**O'sish sur'ati,** *% da*



*Yetishtirilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi*




2026- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 457,5 tonna (2025- yilning yanvar-martiga nisbatan 3,7 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 37,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

**Qashqadaryo viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi,** *tonna*



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2026- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,9 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 91,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 9,5 % i fermer xo‘jaliklariga, 85,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 5,3 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 16,3 % i fermer xo‘jaliklariga, 78,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 5,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 7,8 % i fermer xo‘jaliklariga, 75,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 16,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni,** ***ming bosh***




**O'sish sur'ati,** *% da*




***Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi***




2026- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1 646,4 ming boshga yetdi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2025- yilning 1- apreliga nisbatan 115,3 ming boshga (6,5 %) kamaydi.
- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 91,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

### Qashqadaryo viloyati bo'yicha yirik shoxli qoramollarning bosh soni, *ming bosh*



## Sigirlar

**Soni,** ***ming bosh***




**O‘sish sur’ati,** ***% da***




***Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




2026- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 550,2 ming boshga yetdi.

- sigirlarning bosh soni 2025- yilning 1- apreliga nisbatan 28,4 ming boshga (4,9 %) kamaydi.

- sigirlar bosh soning 88,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning bosh soni, *ming bosh*



## Qo‘y va echkilar

**Soni,** ***ming bosh***




**O‘sish sur’ati,** ***% da***




***Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




2026- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 5 084,0 ming boshga yetdi.
- qo‘y va echkilarning bosh soni 2025- yilning 1- apreliga nisbatan 10,2 ming boshga (0,2 %) ko‘paydi.
- qo‘y va echkilar bosh sonining 85,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning bosh soni, *ming bosh*



# Otlar










2026- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- otlarning umumiy soni 37513 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2025- yilning 1- apreliga nisbatan 526 boshga (1,4 %) boshga ko‘paydi.
- otlar bosh sonining 78,3 % i dehqon va nomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

Fermer xo'jaliklari | Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

**Qashqadaryo viloyati bo‘yicha otlarning bosh soni,** *bosh*



# Parrandalar

**Soni, *ming bosh***




**O‘sish sur’ati, *% da***




***Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




2026- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- parrandalarning umumiy soni 6 652,2 ming boshga yetdi.
- parrandalar bosh soni 2025- yilning 1- apreliga nisbatan 317,0 ming boshga (5,0 %) ko‘paydi.
- parrandalar bosh soning 75,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha parrandalarning bosh soni, *ming bosh*

